
STATISTIKA: O'zbekistonda qancha odam pensiya oladi?

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mamlakatimizda pensiya va nafaqa oluvchilarning sonini e'lon qildi.

Bu haqda jamg'arma matbuot xizmati xabariga ko'ra, 2020 yil 1 may holati bo'yicha Pensiya jamg'armasi hisobida turuvchi pensiya va nafaqa oluvchilarning umumiyligi soni 3 million 734 ming 230 nafarni tashkil qilmoqda.

Hududlar kesimida hisoblanganda ularning eng ko'p - 13,3 foizi Toshkent shahriga, 12,3 foizi Navoiy viloyatiga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich Toshkent, Buxoro, Farg'ona, Sirdaryo, Andijon, Xorazm viloyatlarida 11 foiz va undan ko'proqni tashkil qiladi. Boshqa hududlarda esa 9 foizdan 10 foizgacha.

Eslatib o'tamiz, bugungi kunda pensiyalarning o'rtacha miqdori 747 ming 480 so'mni tashkil etmoqda. 1991 yil 1 yanvardagi ma'lumotda 2 million 158 ming 995 nafar pensiya va nafaqa oluvchi qayd etilgan.

2020-07-14 10:24:25